
ANTHEM OF THE COUNTRY IN THE POEMS OF ABDULLA ORIPOV

Nozima Shukhratovna Oripova

Deputy Director OF School of creativity for Academic Affairs
named after Abdulla Aripov

ANNOTATION

The article is devoted to the artistic and literary analysis of Abdulla Aripov's poems about the Motherland. The poet's lyrics were commented in detail at home.

Keywords: Poetry, Abdulla Aripov, Soviet times, people, nationalist poet, landscape of the Motherland.

INTRODUCTION

Abdulla Oripov yurtsevar, elparvar ijodkor. Uning she'riyatida vatanparvarlik, xalqchillik, milliy g'urur va iftixor ruhi balqib turadi. Ulug' shoir she'riyatining asosiy mohiyati vatan timsoli, ona zamin manzillari manzarasi, yurt madhi bilan bog'liqdir. Abdulla Oripov O'zbekiston Respublikasi madhiyasining mullifi sifatida ham toleyi baland ijodkor. Bu saodat har qanday shoirga ham nasib etavermaydi, albatta.

Iqboli yuksak shoir uchun vatan o'zini o'rab turgan tog'-u tosh, dov-daraxtdan iborat moddiylik emas, balki qalbdagi qo'nim topgan ma'naviy-ruhiy mohiyatdir. Shoir har qanday davrda Vatan va millat oldidagi burch va ma'suliyatidan og'ishmay ijod qilgan. Xatto sho'ro davrining suronli yillarida ham yuragidan sizib chiqqan vatangadolik, xalqsevarlik hislaridan tonmagan.

MAIN PART

Adabiyotshunos olim Matyoqub Qo'shjonov shoir she'rlari haqida: "Abdulla Oripov – Vatan kuychisi. U Vatanni borlig'icha, butun go'zalligi bilan birga ko'radi. U vatanning o'tmishiga nazar tashlab, toleyi o'ng kelmagan yurtini, jabrdiyda xalqini, bugungi kuniga nazar tashlab, yashnayotgan shahar va qishloqlarni, buyuk ishlarni amalga oshirayotgan xalqini ko'radi" deya yozganida mutlaqo haq edi. O'z she'rlaridan birida:

"Shoir deganlarida shahiddir – xunsiz,

Uchinchi dunyodir – kunduzsiz, tunsiz.

Bola kabi kular, biroq ko'zda yosh,

Bola kabi yig'lar va lekin unsiz", – degan shoir "O'zbekiston" she'rini yuksak mahorat va katta jasorat bilan yozgan. O'sha davr uchun ulkan ma'naviy jasorat timsoli bo'lgan "O'zbekiston" she'ri nafaqat, o'zbek she'riyati, balki jahon she'riyati osmonida ham charaqlagan quyosh yanglig' porlab turdi:

Bir o'lka bor dunyoda biroq,

Bitilmagan dostonidir bori.

Faqat ojiz qalamim manim,

O'zbekiston, Vatanim manim

She'rning lirik qahramoni-"qalami ojiz" shoir. U o'z yurtiga she'r bitadi-yu, qiyosini topa olmaydi. "O'lis tarix qadamlari"da "Zir qaqshatgan Buyuk jahongir", "Beruniyning aql mash'ali", "Temur tig'i yetmagan joyni qalam bilan olgan Alishe'r"lar yurtini, "...eng so'nggi nonin o'zi yemay o'g'liga tutgan" diyor bilan "Mangu yorug' maskanim manim manim, O'zbekiston Vatanim manim" deya iftixor qiladi.

Abdulla Oripov Vatan mavzusidagi she'rlari bilan yurt tushunchasini ma'naviy qadriyatga aylantira olgan. U vatanni el, xalq, millat bilan bir butun, chambarchas tasavvur qiladi. Shu ma'noda ijodkor haqiqiy millatparvar shoir sifatida shon-sharaf sohibidir:

Men nechun sevaman O'zbekistonni

Tuprog'in ko'zimga aylab to'tiyo.

Nechun Vatan deya yer-u osmonni,

Muqaddas atayman, atayman tanho.

Shoir she'rlarini vatanning ruhiy manzaralari deyish mumkin. Ijodkor ona yurtni kishilar ruhiyatiga ko'chira olganligi uchun ham uning bitiklari yuksak ahamiyatlidir. Badiiy qiymati beqiyos bo'lgan tubandagi satrlar shunchaki yaltiroq dabdaba, suronli chaqiriq emas, ohorli tuyg'ular zamzamasidir:

Vatanlar,

Vatanlar,

Mayli gullasin,

Bog' unsin manguilik muzda ham, ammo,

Yurtim, seni faqat boyliklaring-chun

Sevgan farzand bo'lsa kechirma aslo!

Shoir tuyg'ulari aniq voqea-hodisadan jonlanadi va o'qirmanni hayratga solar darajada badiiy ifoda bilan jilolanadi. Shoir jonidan ortiq ko'rgan yurtining manzaralarini tasvirlashda ham mahorat ustasi. Bu jihatdan "Qo'riqxon", "O'rmon", "Diyor", "Yurtim shamoli", "O'zbekistonda kuz", "Bahor" va "Bahor shamoli" kabi she'rlari ahamiyatlidir. Ayniqsa, shoirning "Kenglik nuqtasi" she'ri ijodkorning nazari o'tkir, sinchkov shoir ekanligini isbotlaydi:

Har zumda dunyoning burchaklariga

Xabarlar jo'naydi qator va qator.

Xohlasang, uchaver Marsdan nariga,

Xohlasang, falakning u burchiga bor.

Qo'lingda tap-tayyor haddi hisob bu

Haddi hisob bergan shahri Kitob bu.

So'z san'atkorining "Bahor" nomli she'rini yod olmagan, o'qimagan, bahor bayramlarida jon qulog'i bilan tinglamagan kishini uchratish qiyin. She'r yil fasllaridan biri bahorning go'zal manzarasi haqida. Badiiy tafakkur ustasining serjilo qalami ila chizilib, rang-barang bo'yoqlari bilan bo'yalgan bahor faslining betakror suvrati kishi qalbiga faslning o'zi singari go'zallik, navqironlik, jo'shqinlik, obodlik va muhabbat olib kiradi. Ko'z o'ngimizda shundoqqina qarshimizda, poyimizda yastanib yotgan uyg'onish faslining ajib, dilrabo va fusunkor manzaralari paydo bo'ladi. Qizig'i shundaki, bu manzaralarni siz-u biz ham har bahorda ko'p marta ko'rganmiz, kuzatganmiz. Ammo uning shu qadar chiroyli, shu qadar ko'rkam, shu qadar jonli, tirik ekanligini payqamaganmiz. O'zimiz anglamagan, parvo qilmagan tasvirlarning ko'z o'ngimizda kamalak misol jilolanishidan o'zgacha ahvolga tushamiz, lazzatli hislarni tuyamiz, tuyg'ularimizga erk beramiz. Shu boisdan bahorni ham, shoirni ham sevib ketamiz. Haqiqiy shoir nima haqida yozmasin, qalamining bir uchi yuragida olovlanib turgan Ona Vatan haqidagi muhabbat izhorlariga tortiladi. Aslida bahor ta'rifi bilan boshlangan yuqoridagi she'r ham Vatanga bo'lgan dil izhori bilan omuxtalashib ketadi:

Bahoring muborak bo'lsin ushbu dam,

Mening O'zbekiston - dilbar Vatanim.

Faqat sen qalbimga cho'ktirmay malol,

Charchagan ruhimga ilhom solursan.

Bahor ham, umr ham o'tar ehtimol,

Faqat sen dunyoda mangu qolursan.

Soʻzni rozgʻor buyumidek ishlatadigan, sheʻriy qatorlaridagina Vatan uchun jonini tutgan “shoir”larning son-sanogʻi yoʻq. Faqat va faqat tildagina Vatanga iddaolar qiladigan kishi vatan sevgisidan mosuvo boʻladi. Yurt tushunchasi tilidagina boʻlib qolmay, koʻngliga koʻchib ruhini butkul egallagan ijodkor nima haqida yozsa ham, vatanni tasvirlayotgan boʻlib chiqaveradi. Aslida u oʻz ichki olamini ifoda etadi. Bu ichki olam tanho vatan surati va siyratidan iborat boʻladi.

CONCLUSION

Oʻzbekiston Qahramoni, shoir Abdulla Oripov koʻplab sheʻrlari bilan chinakam Vatan farzandi sifatida ijod qildi, el-yurt dardini kuylab yashadi. Ustoz soʻz sanʼatkori hamisha yurtini, xalqini sevib ardoqladi va Ona Vatan ham oʻz navbatida yurtsevar farzandini suyib, siylab keldi. Shoir butun umr qutlugʻ saodatni his qilib yashadi hamisha – el nazarida, ehtiromida boʻldi.

REFERENCES

1. A.Oripov. Tanlangan asarlar.”Sharq nashriyoti. –T:, 2016.
2. A. Oripov. Saylanma. “Maʼnaviyat”.-T:, 2007.
3. Y. Isʼhoqov. Soʻz sanʼati soʻzligi. “Oʻzbekiston” nashriyoti. – T:, 2014.
4. A.Oripov. Umr manzillari. “Maʼnaviyat”.-T:, 2014.